



O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA TARAQQIYOT STRATEGIYASI

G'ofurov Otabek

O'zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya yo'nalishi talabasi,
E-mail otabekgofurov891@gmail.com
tel:94 947 97 99

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-September 2023 yil
Ma'qullandi: 08-September 2023 yil
Nashr qilindi: 13-September 2023 yil

KEY WORDS

*innovatsiya, rivojlanish, ko'nikma,
darsliklar, bosqich, kadr, inson
kapitali, ma'rifat, konsepsiya,
texnologiya, o'quv dasturi,
intellektual.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada, rivojlanib borayotgan O'zbekiston ta'lim tizimi va ta'lim sifati oshib borishi natijasida paydo bo'layotgan taraqqiyot hususida so'z boradi.

Taraqqiyot davrida har bir inson kuchli bilim olishi va shu yurtga, jamiyatga o'z qobiliyatlaridan kelib chiqib foyda keltiradigan yosh avlod bo'lib voyaga yetishi hozirgi zamon talabi bo'lib qolmoqda desak har jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Sifatli ta'lim esa har bir sohaning asosiy poydevoridir. Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan biz yoshlarga har tomonlama ya'ni har bir soha har bir yo'nalish bo'yicha biz yoshlarga keng va katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz mana shu berilayotgan e'tibor hamda imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda yurtimizning rivojlanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozim va shuning uchun har daqiqada harakat qilishimiz zarurdir. Qandaydir sohada rivojlanish bo'lishi uchun dastlab ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish zarurdir. Avvalo, ta'lim asosida o'z bilimlarimizni kengaytirgan holda nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib u orqali yurtimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shsak shundagina taraqqiyot hamda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi. Binobarin, shuni aytib o'tishimiz joizki go'dak tug'ilganidan boshlab to maktab davrigacha bilimlarning, ya'ni aqliy faoliyatining 4% ni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi, go'dak 50 yoshga yetganida bilimlarning 97% ni o'zida to'liq mujassamlashtirgan bo'ladi. Ta'lim tizimi ham insonlarning aqliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatni rivojlantirish uchun inson aqliy faoliyati birinchi o'rinda turadi. Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun birinchi navbatda o'quv qo'llanma, adabiyotlar, darsliklarga katta ahamiyat qaratishimiz lozimdir. Bu fikrimni asoslash maqsadida oddiy bugungi kundagi holatlardan misol qilib keltiradigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi darsliklarga e'tibor qaratish lozimdir. Bugungi kunda ushbu darsliklarning murakkablashuvi yoki fanlarning birlashishlari ya'ni ona tili va o'qish fanlarining birikuvidan ona tili va o'qish savodxonligi yakka fan sifatida o'qitilishi ham noto'g'ridir. Barcha ta'lim sohalarining eng

dastlabki bosqichi bu boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Shuning uchun bu darsliklar o'quvchilar o'rganishlari va oson o'zlashtirishlari uchun sodda va ravon shaklda tayyorlanishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.¹ Ta'lim sohasidagi taraqqiyot yetuk kadrlarga ham bog'liqdir. Yetuk kadrlarning bilimlari qanchalik darajada yuqori va sifatli, kuchli bo'lsa ular tayyorlayotgan yosh kadrlar O'zbekistonni har jihatdan rivojlantirishda beqiyos rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review). Ta'lim tizimini rivojlantirish borasida ko'plab ota-bobolarimiz yosh avlodga o'rnak bo'ladigan darsliklar, o'quv-qo'llanmalar, shuningdek, ko'plab adabiyotlarni meros qoldirishgan. Buyuk mutafakkir Al-Farg'oniy astronomiya fanida birinchi bo'lib geliosintrik nazariyani asoschisi bo'lgan, ya'ni, Yerni Quyosh atrofida aylanishini aniq hisob-kitoblar bilan isbotlab bergan. Yana bir buyuk bobomiz Temuriyzoda Mirzo Ulug'bek XV-asrdayoq Samarqandda observatoriya barpo etib yulduzlar xaritasini tuzgan. U yulduzlar joylashuvini shu qadar aniq hisoblaganki hozirgi fan-texnika bu ma'lumotlarni bugungi kun hisobi bilan atigi bir-ikki daqiqa farq qilinishini aniqladi. Bundan ko'rinib turibdiki bizning ota-bobolarimiz jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan shaxslar bolib yashab o'tganligi. Asosan ta'lim tizimi sobiq markazning hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Aytaylik aksaryat fanlar o'quv dasturiga kiritilmagan. Birgina, O'zbekiston tarixi fanini oladigan bo'lsak ushbu fan xolis o'rganilmas, o'quv dasturida bu fanga ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o'rganishga bag'ishlanar edi. O'quvchilar ongi vatanimiz tarixining noto'g'ri talqin qilingan hodisalari bilan talqin qilinar edi. Milliy qadriyat va ma'naviyat toptalar, asl o'zbek olimlari va buyuk davlat arboblari, sarkardalari hayot va ijod yollari qoralangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Ayniqsa ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim- tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma'naviyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi". Ta'lim tizimini har tomonlama shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi, dunyo qarashi, bilim saviyasini o'zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Ta'lim tizimi har tomonlama barqaror bo'lishi har qanday jamiyatni rivojlanish cho'qqisiga olib chiqadi. Ta'lim tizimining sifatli har tomonlama puxta ishlab chiqilishi inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, o'z kelajagini o'ylagan har bir mamlakat, har bir millat yosh avlodga jahon andozalari darajasida ta'lim berish, navqiron avlodni ma'nan yetuk, jismonan barkamol etib voyaga yetkazishga ustuvor ahamiyat beradi. Uchinchi renessans poydevorini yaratish yo'lidan dadil odimlayotgan Yangi O'zbekistonda bu boradagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi va oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilm-fanni rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrov keskin ko'paydi. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi oshdi. So'nggi yillardagi asosiy islohot o'qituvchi kasbi nufuzini oshirishga qaratilmoqda. O'qituvchilar majburiy mehnatdan ozod etilib ta'limga qaytarilishi barobarida ish haqi 1,5

-
- 1) Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali.

baravarga oshirildi, o'qituvchilar tomonidan yuritiladigan hujjatlar soni 7 tadan 1 taga kamaytirildi. Toifa olish jarayonlari, bu bilan oylik ish haqini oshirish imkoniyati ham kengaytirildi va jarayonlar ancha soddalashtirildi. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilmoqda va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda. Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.²

Ayni davrda O'zbekiston oliy ta'lim sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bilim dargohlarining qiyofasi o'zgarib, moddiy-texnika bazasi yaxshilanmoqda, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda, jumladan, professor-o'qituvchilarning daromadlari ham ortyapti. Innovatsiya yo'nalishidagi alohida davlat tuzilmalari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarida ham yangi bo'linmalar ochilmoqda. Bularning barchasi oliy ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirib, uning sifati hamda darajasini ko'tarishga xizmat qilishi aniq.

Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimi mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim omildir. Jamiyatda ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Ta'lim sifati rivojlansa, har bir sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi. Yurtimizda uzluksiz va uzviylik tamoyillariga tayangan ta'lim tizimi yaratilishining zahirida jamiyatda ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni

2) ² Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги

"Таълим тўғрисида"ги Қонун" ЎР-637-сон. (қонун хужжатлари

маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

tarbiyalash, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi har jihatdan ta'minlanadi. Ta'lim tizimini qanchalik isloh qilsak shunchalik kamdek tuyulaveradi. Ta'lim sifati natijadorligi mamlakatning turli sohalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi bu tabiiy holdir. Shu sabab, kuchli rivojlangan mamlakatlar ta'lim berishni inson aqliy faoliyatining boshlang'ich nuqtasidan boshlashadi.

Adabiyotlar:

- 1.Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19.
- 2.Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги Қонун" ЎР-637-сон. (қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

